

MUSTAQIL SO`Z TURKUMLARINI “COOPERATIVE LEARNING” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O`RGATISH USULLARI


Bo‘ronova Shohista Mengliboevna – pedagogika fanlari nomzodi, Nukus davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili kafedrasи

Saparboeva Indira - Nukus davlat pedagogika instituti 2 kurs magistranti

Insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan ta’lim tizimida ham global o‘zaro bog‘liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta’sir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning echimi faqatgina insoniyatdan keljakda aqliy va ma’naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to‘g‘ri va sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish orqaligina erishish mumkin. Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta’lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo‘lmaydi. Buning echimi ta’lim-tarbiyaga e’tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko‘proq mablag‘ ajratish orqali ta’lim sifatini yuksaltirish bilan hal etilishi mumkin. Zamonamiz pedagoglari shunday davrda faoliyat ko‘rsatmoqdaki, o‘zi va o‘quvchilarning turmush tarzi, yurish-turishi, kiyinishi, muomala-munosabatlarida, eng muhimmi ta’lim-tarbiyaga munosabatida oldingi davrlar o‘lchovlari bilan o‘lchab bo‘lmas darajada o‘zgarishlarga guvoh bo‘lmoqda. Jamiyat hayotidagi islohotlar ta’lim sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Tizimga kirib kelayotgan innovatsiyalar oqimiga qarab olimlarimiz bundan bir necha o‘n yillardan keyin xotiraga asoslangan ta’limdan voz kechilishini, keljakda ta’lim gajetlar va internet texnologiyalariga asoslanishini ham bashorat qilishmoqda¹ Biz quyida ushbu maqolamizda ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy xorijiy ta’lim texnologiyalarini xususan, “Cooperative learning” texnologiyasini qo‘llab mustaqil so ‘z turkumlarini qo ‘llash haqida ayrim fikrlarni keltirmoqdamiz

¹ Митио Каку. Таълим энди хотирага таянмайди. – Маърифат, 2018 йил 15 март.

“Cooperative learning” (hamkorlikda kichik guruhlarda o‘qitish) – Ta’lim usullaridan biri bo‘lib, o‘rganish tajribalarini guruh bilan birqalikda amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu usulda talabalar shunchaki kichik guruhlarga birlashmaydilar, balki qat’iy bir-biriga bog‘liq bo‘lgan “struktura”ni tashkil etadilar.



“Cooperative learning” (hamkorlikda kichik guruhlarda o‘qitish) modelining bir qancha texnologiyalaridan foydalilanildi. Bu texnologiyalar qo‘llanganda, o‘uvchilar juft bo‘lib yoki 4-5 kishidan iborat guruhlarda amalga oshiriladi.

Namuna:

- **Boshqotirma (Jigsaw)** – talabalar ikki guruhga bo‘linadilar: ishchi guruh hamda ekspert guruhga. Ishchi guruhning har bir a’zosiga turli mavzular ajratiladi. Agar ajratilgan mavzular aynan bo‘lib qolsa, talabalar ishchi guruhni tark etadilar. Ular yangi guruhni hosil qiladilar va berilgan topshiriqni birqalikda o‘rganadilar. Ishchi guruhga qaytganlaridan so‘ng har bir talaba o‘ziga ajratilgan mavzuni tushuntirib beradi.
- **Ichki-tashqi aylana (Inside-outside circle)** – bu “sooperative learning” (hamkorlikda kichik guruhlarda o‘qitish) strategiyalaridan biri bo‘lib,

bunda talabalar ichki va tashqi doirani hosil qiladilar. O‘qituvchining bergan savolini dastlab ichki va tashqi guruhlarda fikr almashiladi, undan so‘ng ichki aylanadagi ishtirokchilar uning tashqi aylanasini hosil qilgan guruh a’zolaridan biri bilan juft holda savollarga echim qidiradilar.


- **O‘zaro o‘qitish (Reciprocal teaching)** – bunda talabalar juft holda biror matn haqida dialog hosil qiladilar. Qatnashchilar matnni o‘qishi, bir-birlariga savollar beradi, taassurotlarini o‘rtoqlashadilar. Mazkur usul talabalarning biror matnni aniq tushunishi va muayyan xulosalarga ega bo‘lishlariga imkon beradi. SHu tariqa, talabalar bir-biri bilan fikr almashish jarayonida bilimga ega bo‘ladi. **Boshqotirma (Jigsaw)** – talabalar ikki guruhga bo‘linadilar: ishchi guruh hamda ekspert guruhga. Ishchi guruhning har bir a’zosiga turli mavzular ajratiladi. Agar ajratilgan mavzular aynan bo‘lib qolsa, talabalar ishchi guruhni tark etadilar. Ular yangi guruhni hosil qiladilar va berilgan topshiriqni birgalikda o‘rganadilar. Ishchi guruhga qaytganlaridan so‘ng har bir talaba o‘ziga ajratilgan mavzuni tushuntirib beradi.

Бошқотирма (Jigsaw)

**Нима учун
сўзлар
туркумларга
ажралади?**



Ichki-tashqi aylana (Inside-outside circle) – bu “sooperative learning” (hamkorlikda kichik guruhlarda o‘qitish) strategiyalaridan biri bo‘lib, bunda talabalar ichki va tashqi doirani hosil qiladilar. O‘qituvchining bergan savolini dastlab ichki va tashqi guruhlarda fikr almashiladi, undan so‘ng ichki aylanadagi ishtirokchilar uning tashqi aylanasini hosil qilgan guruh a’zolaridan biri bilan juft holda savollarga echim qidiradilar.



20

Sinf bir necha guruxga bo‘linadi. Katta aylana va kichik aylana xosil qilinadi. Xar ikkala aylana uchun bir xil muammo tashlanadi, ya’ni bitta muammo xam katta, xam kichik guruxda muxokama qilinadi:

Mustaqil so‘z turkumlaridan yordamchi so‘z turkumlari qaysi xususiyatlari bilan bir birlaridan farq qiladilar?

Muammoning muxokamasi tugagandan so‘ng katta aylana guruxidagi 3 nafar ishtirokchi kichik aylanadagi 3 nafar qatnashchilar bilan almashadilar va muxokama jarayoni davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худаярова, М. Т., & Хасanova, А. Н. (2017). Этнопедагогические взгляды каракалпаков важнейший источник семейного воспитания

и социальной адаптации детей. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 77-82).

2. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., Menglibayevna, B. S., & Zaripbaevna, S. A. (2021). O ‘zbek tilini nofilologik auditoriyasida o ‘qitishning ayrim masalalari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 20-24.
3. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 25-32.